


XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-sentabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Viloyatimizning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2020-yil yanvar-sentabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 328,9 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 23,7 mln. AQSh dollariga yoki 6,7 % ga kamaydi.

TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
VA BALANSI
(yanvar-
sentabr, mln.
AQSh dollari)



Ma'lumot uchun: Viloyat tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



TSA da eksport hajmi 129,9 mln. AQSh dollariga (2019 yilning mos davriga nisbatan 14,3 % ga ko'paygan) va import hajmi 199,0 mln. AQSh dollariga (16,7 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida 69,1 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

XORAZM
VILOYATI
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
ENG YUQORI
ULUSHGA EGA
BO'LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil
yanvar-
sentabr, mln.
AQSh dollari,
ulushi,
% da)

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	107,3	36,3	71,0	32,6
Xitoy Xalq Respublikasi	51,2	8,2	43,0	15,6
Turkiya	39,2	14,1	25,1	11,9
Qirg'iziston Respublikasi	34,0	33,7	0,3	10,3
Qozog'iston	21,5	19,1	2,4	6,5
Koreya Respublikasi	21,2	0,3	20,9	6,5
Turkmaniston	6,3	2,6	3,7	1,9
Ukraina	5,2	1,4	3,8	1,6
Germaniya	3,4	0,3	3,1	1,0
Tojikiston Respublikasi	1,9	1,9	0,0	0,6

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Viloyat jahonning 78 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (32,6 %), Xitoy Xalq Respublikasi (15,6 %), Turkiya (11,9 %), Qirg'iziston Respublikasi (10,3 %), Koreya Respublikasi (6,5 %), Qozog'iston (6,5 %) va Ukraina (1,6 %) davlatlariga toq'ri keladi.

**XORAZM
VILOYATI NING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI**
yanvar-
sentabr,
mln. AQSh
dollari

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda Qirg'iziston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 10 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afg'oniston (0,8 mln. AQSh dollari), Qirg'iziston Respublikasi (34,0 mln. AQSh dollari), Tojikiston (1,9 mln. AQSh dollari), Turkiya (39,2 mln. AQSh dollari) va Eron (4,9 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 14 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



XORAZM
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-
sentabr,
mln. AQSh
dollari)

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Rossiya Federatsiyasi	55,5	56,0	107,3
Eksport	31,0	22,7	36,3
Import	24,5	33,3	71,0
Saldo	6,5	-10,6	-34,7
Xitoy Xalq Respublikasi	43,0	93,7	51,2
Eksport	6,3	4,6	8,2
Import	36,6	89,1	43,0
Saldo	-30,3	-84,5	-34,8
Qozog'iston	19,1	26,1	21,5
Eksport	14,1	18,7	19,1
Import	5,0	7,4	2,4
Saldo	9,1	11,3	16,7
Koreya Respublikasi	4,9	13,7	21,2
Eksport	0,1	0,2	0,3
Import	4,8	13,5	20,9
Saldo	-4,7	-13,3	-20,6
Turkiya	11,9	31,7	39,2
Eksport	6,4	6,1	14,1
Import	5,5	25,6	25,1
Saldo	0,9	-19,5	-11,0
Qirg'iziston Respublikasi	0,7	36,9	34,0
Eksport	0,2	36,3	33,7
Import	0,5	0,6	0,3
Saldo	-0,3	35,7	33,4



XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI




XORAZM
VILOYATI NING
TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA
MDH
MAMLAKATLARI
VA BOSHQA
XORIJIY DAV-
LATLARNING
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-
sentabr,
mln. AQSh
dollari,
ulushi, % da)

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Litva	1,1	4,6	1,8
Eksport	0,0	0,2	0,0
Import	1,1	4,5	1,8
Saldo	-1,1	-4,3	-1,8
Ukraina	3,4	8,2	5,2
Eksport	0,5	6,1	1,4
Import	2,9	2,1	3,8
Saldo	-2,4	4,0	-2,4
Latviya	5,1	15,3	3,3
Eksport	-	0,0	0,4
Import	5,1	15,3	2,9
Saldo	-	-15,3	-2,6
Eron	12,2	9,0	4,9
Eksport	8,8	6,2	3,5
Import	3,4	2,8	1,4
Saldo	5,4	-3,4	2,1
Belarus Respublikasi	3,1	3,9	2,2
Eksport	1,0	1,7	0,7
Import	2,1	2,2	1,5
Saldo	-1,1	-0,5	-0,8

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 54,5 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2019-yilning shu davriga nisbatan 26,3 % ga oshgan.

XORAZM VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-sentabr)

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida mamlakatning eksportiyorlari soni 192 tani tashkil etib, ular tomonidan 129,9 mln. AQSh dollari (2019-yilning mos davriga nisbatan 14,3 foizga oshdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST
BO'YICHA
EKSPORT
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-
sentabr,
ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi 95,5 % ni tashkil etib, ular asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (36,1 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (0,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (30,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlat-lari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlat-lari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	129,9	96,1	33,8	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	39,9	36,6	3,3	30,7	38,1	9,6
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xom ashyo, yoqilg`idan tashqari	13,5	4,4	9,1	10,4	4,6	26,9
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	2,2	1,6	0,6	1,7	1,7	1,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	0,5	0,5	0,0	0,4	0,5	0,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalan gan sanoat tovarlari	46,9	28,1	18,8	36,1	29,2	55,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,2	0,2	0,0	0,1	0,2	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	20,9	20,8	0,1	16,1	21,7	0,6
Xizmatlar	5,8	3,9	1,9	4,5	4,0	5,7

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yoʻnalishi boʻyicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi xizmatlar hissasiga toʻgʻri kelmoqda, keyingi oʻrinlarda eksport hajmi boʻyicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, turli xil tayyor buyumlar hamda mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallarga toʻgʻri kelmoqda.

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTINING
OʻSISH
SURʼATLARI
(2020-yil
yanvar-
sentabr)**

XSST tarkibi	2019 yilning yanvar-sentabrga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	114,3	106,6	144,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	63,3	62,4	75,8
Ichimliklar va tamaki	35,3	35,3	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilgʻidan tashqari	118,8	140,9	110,4
Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallar	0,0	0,0	0,0
Hayvon va oʻsimliklar moylari (yogʻlari), yogʻlar va mumlar	9,4 m.	7,0 m.	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar	98,1	193,0	0,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	187,5	160,7	2,5 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	2,2 m.	2,4 m.	1,6
Turli xil tayyor buyumlar	6,9 m.	6,9 m.	28,5 m.
Xizmatlar	62,8	61,4	65,6

**EKSPORT
TARKIBI
DINAMIKASI
(yanvar-
sentabr,
% da)**

2020-yil yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-sentabriga nisbatan, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o'sish kuzatildi.

XSST tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	26,0	55,4	30,7
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	15,5	10,0	10,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	1,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,2	1,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,9	0,5	0,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	43,2	22,0	36,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,1	0,1	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	4,6	2,6	16,1
Xizmatlar	9,6	8,1	4,5



XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2019-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	38,8	63,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,4	10,0 m.
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,1	139,5
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,4	60,9
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	0,2	16,3
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,03	35,3
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	8,6	116,1
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	4,7	135,5
Metall rudalari va metall parchalari	-	-
Qog'oz massasi va makulatura	-	-
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	0,2	33,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	-	-
Elektr toki	-	-
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	2,2	8,9 m.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,2	4,1 m.
Noorganik kimyo moddalari	-	-
O'g'itlar	-	-
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	-	-
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,3	6,3 m.


**XSST BO'LIMI
BO'YICHA
AYRIM
MAHSULOTLAR
EKSPORTI
TARKIBI
(2020 yil
yanvar-
sentabr)**

**XSST BO'LIMI
BO'YICHA
AYRIM
MAHSULOTLAR
EKSPORTI
TARKIBI
(2020 yil
yanvar-
sentabr)**

Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	44,2	178,3
Rangli metallar	0,2	-
Cho'yan va po'lat	-	-
Metalldan tayyorlangan buyumlar	1,3	9,3 m.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1,2	12,9 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Avtomobillar	-	-
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	-	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	0,1	-
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	0,1	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	18,2	59,3 m.
Poyabzal	1,5	122,8
Har xil tayyor buyumlar	1,1	87,1
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash buyumlar	0,1	11,4
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	3,3	80,3
Safarlar (turizm)	1,9	51,5
Telekommunikatsiya, axborot va kompyuter xizmatlari	-	-
Qurilish xizmatlari	-	-
Boshqa biznes xizmatlari	0,6	40,8

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019-yil yanvar-sentabrdagi 79,4 % dan 2020-yil yanvar-sentabrida 74,0 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 26,0 % ni tashkil etdi.

MDH
VA BOSHQA
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-sentabr,
mln. AQSh
dollari,
ulushi, % da)




2020-yilning yanvar-sentabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 28,0 %), Xitoy Xalq Respublikasi (6,3 %), Turkiya (10,9 %), Qozog'iston (14,7 %), Afg'oniston (0,6 %), Qirg'iziston Respublikasi (26,0 %) va Tojikiston (1,5%) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 87,8 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Rossiya Federatsiyasi yana oldinga chiqdi va eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019-yilning mos davriga nisbatan 135 davlatdan 71 davlatga kamaydi.

XORAZM
VILOYATINING
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLARGA
AMALGA
OSHIRGAN
EKSPORTI HAJMI
VA O'SISH
SUR'ATLARI
(yanvar-
sentabr)



Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Qirg'iziston Respublikasi	36,3	33,7	15,0	92,8	1	2
Rossiya Federatsiyasi	22,7	36,3	92,6	159,9	2	1
Qozog'iston	18,7	19,1	132,6	102,1	3	3
Turkiya	6,1	14,1	94,9	2,3 m.	5	4
Xitoy Xalq Respublikasi	4,6	8,2	72,6	178,3	6	5
Turkmaniston	3,6	2,6	2,7 m.	76,5	7	6
Tojikiston	0,8	1,9	8,5 m.	2,4 m.	8	7
Ukraina	6,1	1,4	12,1	23,0	4	8
Germaniya	0,2	0,3	3,3 m.	150,0	9	9
Koreya Respublikasi	0,3	0,3	195,3	100,0	10	10

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.


**XORAZM
VILOYATINING
AYRIM
DAVLATLAR
BILAN EKSPORT
TARKIBI
(2020 yil
yanvar-
sentabr, ulushi
% da)**

XSST tarkibi	Rossiya Federatsiyasi		XXR		Turkiya		Qozog'iston	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Jami eksport	22,7	36,5	4,6	8,1	6,2	14,0	18,6	19,1
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,6	12,2	0,3	0,4	1,8	0,7	18,6	18,1
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,3	0,1	2,1	1,3	2,2	3,2	0,0	0,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,9	-	-	-	-	-	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,2	-	-	-	-	-	-	0,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	14,1	21,7	2,2	6,4	2,2	9,9	0,0	0,4

**XIZMATLAR
EKSPORTI
TARKIBI**
(yanvar-sentabr,
ulushi, % da)

Mashinalar va transport asbob-uskunalari	-	0,0	-	-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	0,0	0,0	-	-	-	0,2	0,0	0,5
Xizmatlar	3,6	2,5	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

Xizmatlar eksporti hajmi 5,8 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 4,5 % ini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 37,2 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (56,9 %) va turizm (32,7 %)



xizmatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga telekommunikatsiya va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar 10,4 % ni tashkil etgan.

**MEVA -
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARINING
EKSPORT
GEOGRAFIYASI
(yanvar-
sentabr)**



Oziq-ovqat mahsulotlarining eksport qiymati 38,8 mln. dollar bo'lib, 82,9 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019-yilning mos davriga nisbatan 22,8 mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, ko'rsatkich 63,0 % ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, shundan 12,8 mln. AQSh dollariga teng 41,4 ming tonna sabzavot, shuningdek, 16,3 mln. AQSh dollari qiymatidagi 25,5 ming tonna meva, 2,9 mln. AQSh dollariga teng 8,3 ming tonna poliz ekinlari, 0,1 mln. AQSh dollariga teng 0,1 ming tonna yang'og' va 6,5 mln. AQSh dollariga teng 7,6 ming tonna uzum eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 29,9 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (13,9 %), Rossiya Federatsiyasi (9,3 %), va Qirg'iziston Respublikasi (3,5 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

Davlatlar	2019-yil			2020-yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da
Qozog'iston	40,5	18,5	16,3	52,2	18,0	13,9
Rossiya Federatsiyasi	6,3	3,6	3,2	20,8	12,1	9,3
Qirg'iziston Respublikasi	2,5	29,7	26,1	4,1	4,6	3,5
Ukraina	1,3	5,3	4,6	0,8	0,7	0,6
Turkiya	4,2	1,7	1,5	0,6	0,6	0,5
XXR	0,2	0,3	0,2	0,2	0,4	0,2

*-qiymat ifodasidan

TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI
EKSPORTI
mln. AQSh
dollari)

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xom ashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 63,2 mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 48,7 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 2,3 martaga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (55,8 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (30,4 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 11 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 17 ta davlatiga eksport qilindi.

**TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI
EKSPORTI**

Tovar nomi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Paxtadan yigirilgan ip	28,1	20,8	35,3
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	3,6	0,6	19,3
Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	3,8	6,0	8,6

Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (21,7 mln. AQSh dollari – 34,4 %), Xitoy Xalq Respublikasi (7,2 mln. AQSh dollari – 11,4 %) va Turkiya (10,2 mln. AQSh dollari – 16,1 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.


**TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI
EKSPORTI
mln.AQSh
dollari)**

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Rossiya Federatsiyasi	21,9	14,2	21,7
XXR	3,2	3,0	7,2
Turkiya	5,2	2,1	10,2
Qirg'iziston Respublikasi	0,1	0,4	19,8
Qozog'iston	-	-	0,6
Polsha	0,3	0,3	0,3
Ukraina	0,4	0,8	0,6
Eron	3,1	4,2	2,0
Belarus Respublikasi	1,0	1,7	0,7

XORAZIM VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-sentabr)

2020-yil yanvar-sentabr oylarida import hajmi 199,0 mln. AQSh dollarini va 2019-yilning mos davriga nisbatan 83,3 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (29,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (26,6 %) hamda kimyoviy vositalar (5,2 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI
BO'YICHA
IMPORT
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-
sentabr,
ulushi, % da)

- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 26,6 %
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari - 10,8 %
- Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar - 2,5 %
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari - 6,4 %
- Turli xil tayyor buyumlar - 18,2 %
- Ichimliklar va tamaki -
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash mahsulotlar - 1,0 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar - 5,2 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar - 29,3 %

2020-yilning yanvar-sentabrda import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 39,9 mln. AQSh dollariga kamaydi va 199,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORT TARKIBI
(2020-yil
yanvar-sentabr)**

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	199,0	83,0	116,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	52,9	41,1	11,8	26,6	49,5	10,2
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	21,5	17,7	3,8	10,8	21,4	3,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,0	1,9	0,1	1,0	2,3	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	5,0	5,0	0,0	2,5	6,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	10,4	4,1	6,3	5,2	5,0	5,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	12,7	6,0	6,7	6,4	7,3	5,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	58,3	4,8	53,5	29,3	5,8	46,2
Turli xil tayyor buyumlar	36,2	2,4	33,8	18,2	2,7	29,2

Importning eng katta ulushi, jumladan, mashina va transport asbob-uskunalari (29,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (49,5 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (46,2%) hissasiga to'g'ri keladi.



**IMPORT TARKIBI
DINAMIKASI
(2020-yil
yanvar-sentabr,
ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2019-yil yanvar-sentabrga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	83,3	160,8	61,9
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,5 m.	6,4 m.	3,8 m.
Ichimliklar va tamaki	78,0	78,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	109,6	99,2	2,2 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,4 m.	4,6 m.	2,4 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	199,7	2,0 m.	114,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	125,3	75,9	2,2 m.
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	121,5	99,7	151,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	45,0	106,0	42,8
Turli xil tayyor buyumlar	61,7	26,7	67,5

**XSTT BO'YICHA
IMPORT
QILINGAN
AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-sentabr,
2019-yil yanvar-
sentabriga
nisbatan)**

Joriy davrda import qilingan tovarlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2018-yilning mos davriga nisbatan nooziq-ovqat xom ashyosi importining ulushi 17,4 % dan 10,8 % gacha kamaydi asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari importining ulushi esa 7,8 % dan 6,4 % ga kamaydi, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi 8,9 % dan 26,6 % ga o'sdi.



XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



XSTT BO'YICHA
IMPORT
QILINGAN
AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-sentabr,
2019- yil
yanvar-
sentabriga
nisbatan)

XSST tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,9	4,0	26,6
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	17,4	8,2	10,8
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	0,1	0,2	1,0
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	0,2	1,1	2,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	9,0	3,5	5,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	7,8	4,4	6,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	47,9	54,2	29,3
Turli xil tayyor buyumlar	8,7	24,4	18,2

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	o`zgarish sura'tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,0	49,1
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	41,8	746,5 m.
Hayvonlar uchun oзуqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	1,1	57,7
Sabzavotlar va mevalar	1,7	174,7
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	7,3	157,8
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari		
Ichimliklar	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari		
Metall rudalari va metal parchalari To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	0,9	63,5
Probka va yog`och-taxtalar	17,6	102,3
Moy olinadigan urug`lar va mevalar	0,1	6,7
O`g`itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	0,1	60,5
Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	2,8	10,2 m.
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar		



XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI




XSTT BO'YICHA
IMPORT
QILINGAN
AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-sentabr,
2019-yil
yanvar-
sentabriga
nisbatan)

Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1,94	5,3 m.
Ko'mir, koks va briketlar	0,06	69,4
Elektr toki	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	5,0	199,7
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	-	-
Hayvonlar moylari va yog'lari	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1,1	66,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	3,5	2,4 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	5,3	92,7.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	0,2	53,6
Organik kimyo moddalari	0,3	125,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	6,1	2,1 m.
Metaldan tayyorlangan buyumlar	0,9	81,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,8	2,4 m.
Probka va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar	1,8	120,5
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	3,1	68,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	36,6	42,1
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	0,3	16,9
Avtomobillar, asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan avtoulovlar (10 va undan ortiq kishini tashishga mo'ljallangan transport vositalaridan tashqari)	5,1	26,6
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	10,5	7,3 m.
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	2,3	135,6
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	3,5	129,1
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1,6	127,2
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	33,7	60,2
Har xil tayyor buyumlar	0,6	83,5
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	-	-
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	0,3	23,9

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining oshishi bevosita shakar va shakar xom ashyosi (746,5 barobar o'sdi), hayvonlar uchun ozuqalar (57,7 % ga), donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (49,1 % ga) importining o'sishiga ta'sir qilgan.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importi o'sishi esa, birlamchi shakldagi plastmassalar (2,4 m.) hamda organik kimyo moddalari (25,2 % o'sdi) importining o'sishiga bevosita ta'sir etgan.

MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLAT-
LARDAN
IMPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-
sentabr,
mln. AQSh
dollari,
ulush % da)



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasi umumiy import hajmida 35,7 % ulushi bilan Xitoy Xalq Respublikasini (21,6 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.


XORAZM
VILOYATI
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020-yil
yanvar-
sentabr,
% da)

XORAZM
VILOYATI
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020-yil
yanvar-
sentabr,
% da)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	89,1	43,3	2,4 m.	48,3	1	2
Rossiya Federatsiyasi	33,3	71,0	135,9	2,1 m.	2	1
Koreya Respublikasi	13,5	20,9	2,8 m.	155,4	5	4
Qozog'iston	7,4	2,4	148,9	32,6	6	6
Turkiya	25,6	25,1	4,7 m.	98,1	3	3
Germaniya	5,8	3,1	78,0	53,5	7	5
Litva	4,5	1,8	4,1 m.	39,6	8	7
Belarus Respublikasi	2,1	1,5	10,2 m.	68,1	9	8
Niderlandiya	14,5	0,6	17,6 m.	4,1	4	9
Chexiya Respublikasi	0,7	0,5	3,3 m.	67,1	10	10

2019-yil bilan taqqoslaganda import bo'yicha eng yuqori oltilikda o'zgarish kuzatilmadi.

2020-yil yanvar-sentabr oylari yakuni bo'yicha Xorazm viloyati tomonidan 49 davlat bilan tovar va xizmatlar importi amalga oshirildi.





**XORAZM
VILOYATI
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020-yil
yanvar-
sentabr,
% da)**

Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog‘iston, Turkiya, Germaniya va Litva) jami importning 82,9 % ini tashkil qiladi, bu 164,9 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o‘shishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Koreya, Rossiya, Germaniya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta’minlash bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo‘limi
Tel.: (62) 2246509**